



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Раҳбархон Муртазаева ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖДАГИ ВАТАНДОШЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ - УМУММИЛЛИЙ ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ.....	5
2. Diloram Babajanova AMIR TEMIR VA TEMURIYLAR DAVRINING ЎРГАНИЛИШИ.....	9
3. Eshov B.J. JANUBIY O‘ZBEKISTON JANON TAMADDUNI KONTEKSTIDA.....	16
4. Адолат Раҳманкулова ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ МНОГООБРАЗИЕ УЗБЕКИСТАНА.....	22
5. Muborak Matyakubova XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING IQTISODIY-MADANIY HAYOTI.....	30
6. Раушан Камалова СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ СОХРАНЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ И ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У КАРАКАЛПАКОВ.....	38
7. Дилором Разикова ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ЯПОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: КЛЮЧЕВЫЕ ЭТАПЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ.....	49
8. Фаррух Разаков УЗБЕКСКАЯ ИСТОРИОГРАФИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XVI-XIX ВВ.....	64
9. Iroda Sanginova O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT ISHLARINI BOSHQARISHDAGI ISHTIROKI GENDER TENGLIGINIG ASOSI SIFATIDA.....	71
10. Турдыгул Пирниязова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДАГИ БУЮК ҚУРИЛИШЛАР ХАЛҚ ХОТИРАСИДА.....	76
11. Кямаля Наджафова РОЛЬ АХМЕД БЕКА АГАЕВА И ЕГО ПАРТИИ “ДИФАИ” В БОРЬБЕ ПРОТИВ ДАШНАКСКОГО ТЕРРОРА В КАРАБАХЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА.....	81
12. Ибрагимжан Ташматов ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	90
13. Shaxnoza Tasheva QASHQADARYODA MILLIY TIKLANISH DAVRIDA MADANIY MEROSNI ASRASH VA RIVOJLANTIRISH: (1991-2016YY).....	96
14. Umarali Shamayev MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXIY-MADANIY MEROS (ARXELOGIYA YODGORLIKLARI)GA BO‘LGAN E‘TIBORNING QONUN VA QONUNOSTI HUIJATLARIDA AKS ETISHI.....	101
15. Mirzabek Xolboyev FARG‘ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	106



ISSN: 2181-9599

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

LOOK TO THE PAST

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

Diloram Babajanova,


tarix fanlari doktori, O'zbekiston davlat jahon

tillari universiteti professori

dilorambabajanova52@gmail.com

AMIR TEMIR VA TEMURIYLAR DAVRINING ЎРГАНИЛИШИ

For citation: Diloram Babajanova. STUDY OF THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS. Look to the past. 2025, Special issue 1, pp.9-15

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15754359>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mustaqillik tufayli Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilayotgani, o'tgan davr mobaynida buyuk Sohibqiron hayoti, faoliyati va harbiy salohiyatini gavalantirish borasida o'zbek va dunyo olimlari tomonidan yaratilgan asarlarning qisqacha tahliliga bag'ishlangan. Amir Temur kabi buyuk Sohibqiron vasiyatlari va o'gitlarini hamda u qoldirgan ulkan ma'naviy merosni yoshlar ongiga tezroq yetkazish, ularning ilmga, boy o'tmish tarixiga bo'lgan hurmat-ehromini yanada oshirish, milliy g'urur va faxr-iftixor tuyg'ularini singdirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Kalit so'zlar: Sohibqiron Amir Temur, harbiy salohiyat, milliy-tarixiy qadriyatlar, ruhiya, milliy g'urur, fan va madaniyat homiysi, adolatparvar siyosat, boy meros, bag'rikeng o'zbek xalqi.

Дилорам Бабажанова,

доктор исторических наук, профессор

Узбекский государственный университет мировых языков

dilorambabajanova52@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ПЕРИОДА АМИРА ТЕМИРА И ТЕМУРИДОВ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена вопросам восстановления и увековечения имени Амира Темура в период независимости, а также краткому анализу произведений, созданных узбекскими и зарубежными учёными, в которых раскрываются жизнь, деятельность и военный потенциал великого Сахибкирана. Основная цель — как можно скорее донести до сознания молодёжи заветы и наставления великого Амира Темура, а также его огромное духовное наследие, повысить уважение к науке и богатому историческому прошлому, воспитать чувство национальной гордости и достоинства.

Ключевые слова: Сахибкиран Амир Темура, военный потенциал, национально-исторические ценности, дух, национальная гордость, покровитель науки и культуры, справедливая политика, богатое наследие, толерантный узбекский народ.

Diloram Babajanova,
Doctor of Historical Sciences, Professor
Uzbek State University of World Languages
dilorambabajanova52@gmail.com

STUDY OF THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

ABSTRACT

This article is devoted to the restoration and perpetuation of the name of Amir Temur in the period of independence, as well as a brief analysis of the works created by Uzbek and foreign scholars that reflect the life, activities, and military potential of the great Sahibqiran. The main goal is to convey the will, teachings, and vast spiritual heritage of Amir Temur to the younger generation as quickly as possible, to increase their respect for science and the rich history of the past, and to instill a sense of national pride and dignity.

Index Terms: Sahibqiran Amir Temur, military potential, national-historical values, spirit, national pride, patron of science and culture, just policy, rich heritage, tolerant Uzbek people.

Dolzarbligi:

Mustaqillik tufayli O'zbekistonga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini jahon ahli tan olayotgan bir davrda qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. O'zbek xalqining o'z tarixi haqida bilimni chuqurlashtirish, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik va milliy iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida, mazkur davr tarixiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratildi, ushbu davr tarixini har tomonlama ilmiy va amaliy yo'nalishlarda izchil o'rganib borish hamda targ'ib qilish eng dolzarb vazifalar qatoriga qo'yildi. Ayni paytda, bu borada to'plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarning bebaho merosi hamisha millat boshini baland, qaddini tik qiladi, bag'rikeng o'zbek xalqini olg'a yetaklaydi. Millatning ruhiyati, kayfiyatiga qanot berishga arziqli noyob asarlar nafaqat jamiyatning gullab-yashnashi, balki kelgusi vazifalarning ham samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, "...xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o'z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho'qqilarga ko'tariladi"[1.5]. Binobarin, necha-necha ajdodlarimiz orzu qilib o'tgan mana shunday buyuk ishlarni amalga oshirish, bunday baxt va sharafga musharraf bo'lish bugungi avlodga nasib etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo'lib, ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz. Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi" [2.65]. Zero, jahon ahli O'zbekistonga qarab, o'zbek xalqining millat sifatidagi qiyofasini, muqaddas dini, madaniyati va milliy-tarixiy qadriyatlariga xos bo'lgan bag'rikengligini ko'radi. Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston atalmish bu yurtga butun dunyoning nigohi qadalgan, ajdodlari, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini jahon ahli tan olayotgan bir davrda o'z tarixi, eng avvalo o'tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlari qoldirgan boy milliy qadriyatlarini avaylab-asrash va rivojlantirishga, buyuk sarkardalar merosini chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aslini olganda, Amir Temur saltanati jahon sivilizatsiyasi tarixidan o'rin olgan va uni o'rganish tarixshunoslikning yirik yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiboridagi dolzarb masala bo'lib; bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom ettirilmoqda.

2. Metodlar:

Maqola umum e'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, sosiologik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, bugungi kunda jamiyatda milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishida Amir Temurning o'rni beqiyos bo'lib, nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham o'chmas iz qoldirgan davlat arbobi, shavkatli sarkarda va sahovatli ilm-fan homiysi, buyuk daho, shaxs va oddiy inson ekanligi yangi yondashuvlar asosida

ochib berilgan, bu borada qabul qilingan ko‘plab farmon, qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va taniqli tarixchilarining Amir Temur shaxsiyati va tarixiga bo‘lgan diqqat e‘tibori natijasida Sohibqiron saltanati tarixini to‘liq yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada ko‘plab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni[3], qonunlar va Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari[4] qabul qilingan.

Amir Temur saltanati tarixi bugungi kunda mustaqil soha – temurshunoslik sohasiga aylandi va unga bag‘ishlab ko‘plab manbalar, turli adabiyotlar nashrdan chiqdiki, mavzuga oid tadqiqotlarni tizimlashtirish zarurligi alohida mukammal bibliografik nashrni taqozo etmoqda. Bunday nashr mazkur mavzudagi tadqiqotlar ko‘lamini aniqlashda ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham o‘chmas iz qoldirgan davlat arbobi, shavkatli sarkarda va sahovatli ilm-fan homiysi, buyuk daho, shaxs va oddiy insondir. Shu bois, ulug‘ bobokalon nomini qoralashga uringan sho‘rolar zamonida ham jahonda uning shaxsiga va faoliyatiga bo‘lgan katta qiziqish hech qachon so‘ngani yo‘q. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xalq dahosi timsoliga aylangan buyuk Amir Temurning muborak nomini, u haqdagi tarixiy haqiqat va adolatni tiklashga kirishildi. Unga har gal murojaat etilganda, yangi bir haqiqatni, shiddatkorlik, mag‘rurlik va insoniylik mujassamlashgan insonni yangidan kashf etiladi. Salkam VII asrdiki, hamon Amir Temurni o‘rganiladi, uni har gal eslaganda ko‘ngillar g‘urur va iftixorga limmo-lim bo‘ladi. Sohibqiron shaxsi ham mazmunan, ham shaklan ummondek beqiyosdir. Bu ummon shunchalar keng, shunchalar chuqurki, uning oxiri, cheki-chegarasi yo‘q. Ana shu ummondan terilgan durlardan bahra olish ishtiyoqi bilan bugungi avlod yonib yashamoqda.

Ana shu ishtiyoq va imkoniyat tufayli mamlakatda hazrat Sohibqironning tavallud to‘ylari har yili keng nishonlanadi, ko‘plab tadbirlar o‘tkaziladi, ulkan bunyodkorlik va madaniy-ma‘rifiy ishlar amalga oshiriladi. Ulug‘ bobokalonga taalluqli bo‘lgan har bir tadbir, har bir ish umumxalq tantanasiga aylanib ketgani, ushbu xayrli ishning kelajagi porloq va savobli ekanidan dalolat beradi. “Kimki,—deb aytgan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov,—o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak” [5.169]. Zero, Amir Temurni chuqur anglash, o‘rganish asnosida milliy qadriyatlar, qadimiy an‘analarni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etiladi, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga tug‘iladi.

Sohibqiron Amir Temur hayoti, faoliyati va harbiy sahohiyatini gavdalantirish u yashagan zamon mazmun-mohiyati, ruhiyati, ijtimoiy muhitini tasvirlash uchun ijtimoiy soha vakillari, ayniqsa, tarixchilar suyanadigan va tayanadigan asos, eng muhim yozma manbalar asosiy material hisoblanadi. Amir Temur hayoti davrida zamondoshlari tomonidan va uning vafotidan keyin yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida nihoyatda qadrlil va qimmatlidir. Sohibqiron saltanati tarixi haqida o‘z davrida ko‘plab asarlar yaratilgan, bu asarlar uzoq davrdan hozirgi zamongacha yetib kelgan yozma meros g‘oyat qadrlidir. Bugungi davrda bu yozma durdonalar jahonning nufuzli kutubxonalari va turli qo‘lyozma xazinalarida saqlanib kelinmoqda, ayrimlari esa, suronli yillar davomida, davr taqozosi, zamon suronlarida yo‘q bo‘lib ketganligi achinarlidir. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” asarlari Amir Temur davlati tarixini o‘zida aks ettirgan yirik, eng mukammal tarixiy asarlar bo‘lib, bizgacha yetib kelgan.

Dunyo ilmiy jamoatchiligi o‘tgan yillar mobaynida Amir Temurga bag‘ishlab Yevropa tillarida 500 dan ortiq, Sharq tillarida esa, 900 ga yaqin yirik tarixiy asarlar yaratdilar”[6]. Shuningdek, temuriylar saltanatini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar ham anchagina. Amir Temurni ko‘plab olimu-fuzalolar o‘zlarining ijodlari uchun asosiy mavzu qilib oldilar, ayniqsa mustaqillik yillarida bu ishga astoydil kirishildi. Avvalo, aytish kerakki, bu bilan oldingi totalitar tuzum davrida biroz unutib yuborilishiga oz qolgan buyuk Amir Temur va uning avlodlari oldidagi tarixiy va

ma'naviy burchni bajarishga imkon tug'ildi. Jumladan, Fransiyada professor Lyusyen Keren va Jan Pol Ru, Buyuk Britaniyada U.L.F.Rashbruk va U.Erskin, AQSHda Beatris F.Manz va Kornel X.Flaysler, Turkiyada Mustafo Ali va Xalil Inaljik, Italiyada Nikolao Manussi, Hindistonda Ishvari Prasad va Dj.Sarkor kabi ko'plab tadqiqotchilar o'z asarlarida buyuk Sohibqiron Amir Temurning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning jahon tarixidagi yuksak o'rni, fan va madaniyat homiysi sifatidagi buyuk ishlarini hamda temuriylar saltanatining jahonshumul ishlarini ko'rsatib berdilar. Yuqorida nomi zikr etilgan amerikalik sharqshunos olim Beatris F.Manzning yozishicha: "Amir Temur uzoq davom etgan saltanatining deyarli barchasini o'z mansabdorlari ishtirokida idora qildi... O'zidan avvalgi hukmdorlar singari u xalq orqali davlatni boshqardi"[7.93].

Amir Temur davlatining kuchi uning boshqaruv san'ati va buyuk sarkarda ekanligi bilan belgilanishini ko'pchilik xorijiy tadqiqotchilar e'tirof etadilar. Jumladan, fransiyalik sharqshunos olim Jan Pol Ru Amir Temurning davlat siyosatiga baho berar ekan, shunday deb yozadi: "Uning siyosati, albatta, sof va hech qachon qabih bo'lmagan. U o'z maqsadlarini, imtiyozlarini ochiq-oydin bir haqiqat asosida olib bordi"[8.142].

Xorijiy olimlar Amir Temurning jahon fani, madaniyati va san'atiga, xususan, Sharq sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etish bilan birga, uning siyosatida faqat ichki masalalargina emas, balki tashqi aloqalar ham muhim o'rin tutganligini ta'kidlaydilar. Bu ishlar faqat Osiyoda emas, balki Yevropada ham savdo-sotiq ishlarining yaxshilanishiga olib kelganligini tan olganliklarining o'zi katta ahamiyatga egadir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yillik yubileyiga bag'ishlanib nishonlangan ko'plab xalqaro miqyosdagi tadbirlar va undan keyingi yillarda o'tkazilgan barcha ilmiy-amaliy anjumanlar bu masalaning hamon dolzarb ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tadbirlar eskicha qarashlarga barham berish, mohir sarkardani davlatchilik asoschisi, tengi yo'q bunyodkor, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida his qilish, bu ulug' inson ma'naviy merosining ahamiyatini chuqur anglash tarixiy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni tiklash uchun keng yo'l ochib berdi. Bunda Sohibqironiga bag'ishlangan badiiy va hujjatli filmlar, san'at asarlari, turkum radio eshittirishlar va teleko'rsatuvlar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar va davra suhbatlari, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlari, maktablar va mehnat jamoalarida o'tkazilgan uchrashuvlar, konferensiyalar, ilmiy yig'inlar, xalqaro va mintaqaviy simpoziumlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1995 yil oktyab-noyabr oylarida bo'lib o'tgan YUNESKOning 28-Bosh Assambleyasi Amir Temurning davlat qurishdagi, ilm-fan, maorif va madaniyatni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlarini hisobga olib, "1996 yilda hazrat Amir Temur tavallud topgan kunning 660 yilligini butun dunyo miqyosida nishonlash to'g'risida"[9.89] qaror qabul qildi. Bu – Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixiga, fani va madaniyatiga, me'morchiligi va san'atiga, Sharq sivilizatsiyasi va taraqqiyotiga qo'shgan hissalarining tan olinishi, tarixiy adolatning qaror topishi edi.

Parij Sohibqironiga ko'p marta o'z ta'zimini bajo keltirgan. YUNESKO rahnamoligida o'tgan bu galgi tantanalar esa fransuz xalqining Amir Temur dahosiga, mustaqil O'zbekiston xalqiga bo'lgan yuksak ehtiromi va hurmatining in'ikosi bo'ldi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 yanvardagi 19-son qarori[10] ga binoan, 1996 yilning aprel oyida Parijda, YUNESKO qarorgohida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'limning ravnaqi" mavzuida o'tkazilgan xalqaro simpozium va haftalikni alohida ta'kidlash joiz.

Anjumanlarda asosan xorijiy olimlar o'z ma'ruzalari bilan faol qatnashdilar. Ular Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni, uning fan, madaniyat va ta'limning yuksalishiga qo'shgan benazir hissasini chuqur hurmat va ehtirom bilan e'tirof etdilar. Ko'pgina xorijiy olimlar bilan birga, o'zbekistonlik sakkiz nafar olim ham mazkur anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Parij shahrida o'tkazilgan bu anjuman Amir Temurning jahon fani, madaniyati va san'atiga, xususan, Sharq sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini va yosh mustaqil O'zbekistonning naqadar chuqur ildizlarga ega ekanligini dunyoga yana bir bor namoyish etdi.

Ana shu tadbirlar orasida 1996 yilning 24 oktyabrida Toshkentdagi Turkiston saroyida o'tkazilgan "Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o'rni" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya asosiy o'rin tutadi. Mazkur anjumanda Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika

qit'alarining 25 mamlakati va Hamdo'stlik mamlakatlaridan kelgan 100 dan ortiq mutaxassislar, ikki mingga yaqin olim, yozuvchi, jurnalist, diplomat, fan va madaniyat, davlat va jamoat arboblari ishtirok etgan edilar[11.38].

Konferensiyada YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqalari bo'limining direktori Sadaishiru Akadjima, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining Prezidenti Chingiz Aytmatov, Temuriylar davri san'ati va tarixi assotsiatsiyasining Pryezidenti, fransuz-o'zbek madaniy aloqalar jamiyati Prezidenti, professor Lyusylen Keren, AQSH Atlantik Kengashining xalqaro xavfsizlik dasturi direktori, professor Richard Nelson, Qohiradagi "Al-Azhar" va "Ayn ash-Shams" universitetlarining professori Nasrullo Mubashir Taroziy, Germaniyaning Triyer universiteti professori Klaus Pander, Hindiston Aligarx musulmon universiteti professori Mansura Haydar, Yaponiyaning Kioto universiteti professori Eyji Mano, Xitoy Xalq Respublikasi Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktorining o'rinbosari, professor Sin Guanchen, Turkiyadagi O'rta Sharq universitetining professori Esonbeka To'g'on, Italiyadagi Sharq universitetining professori Mishel Bernardini kabi ko'plab mashhur olimlarning o'z ma'ruzalari bilan qatnashishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular o'z ma'ruzalarida buyuk Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi yuksak o'rni, fan va madaniyat homiysi sifatidagi buyuk ishlarini munosib ta'rifladilar, ulug' mutafakkirlar va tarixiy shaxslar nomini ulug'lash, ularning merosini o'rganishda O'zbekistonda olib borilayotgan katta ishlarga yuksak baho berdilar. Bir so'z bilan aytganda, "Temuriylar renessansi"ning asosiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi.

Parij va Toshkent shaharlarida xalqaro miqyosdagi o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar Samarqand va Shahrisabz shaharlarida bo'lib o'tgan tantanali tadbirlar bilan qo'shib, jahon xalqlarining ulug' Sohibqironga bo'lgan buyuk ehtiromining o'ziga xos bir yakuni bo'ldi. Konferensiyaga tayyorgarlik jarayonida unda ishtirok etishga xohish bildirgan temurshunos olimlarning ma'ruzalari matni va tezislarini o'z ichiga olgan o'zbek, rus va ingliz tillarida uchta kitob chop etildi[12.122]. Mazkur konferensiya yig'ilishlarida Amir Temurning buyuk bunyodkor shaxs va ulkan davlat arbobi va sarkarda sifatida XIV asrda Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan davlatga asos solganligi, bu davlatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgani "buyuk uyg'onish" sifatida baholandi. Konferensiya natijalaridan kelib chiqadigan ilmiy xulosa ham aynan shu fikr edi.

Shuningdek, ma'ruzalarda ulug' Sohibqironning madaniy-ma'rifiy faoliyati, adabiyot, san'at, me'morchilik, fan va ta'lim arboblari homiyliigi va ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashi hamda shu orqali jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasi ilmiy asosda bayon etib berildi. Chiqishlarda Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat qurilishi, xalqaro munosabatlar, amaliy san'at va hunarmandchilikning rivojlanishi, bu davrdagi adabiy aloqalar rivoji, hazrat Sohibqiron siymosining adabiyotdagi aks etishi, turli hududlarda Amir Temur nomi bilan bog'liq arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va saqlashning hozirgi muammolari kabi aniq ilmiy-amaliy masalalar haqida e'tiborli mulohazalar yuritildi. Bir so'z bilan aytganda, "Temuriylar renessansi"ning asosiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur tavalludining 660 yilgining xalqaro miqyosda nishonlanishi, "1996 yilni "Amir Temur yili" deb e'lon qilish to'g'risida"gi[13], "Temuriylar tarixi davlat muzeyi"ning tashkil etilishi[14], "Xalqaro Amir Temur fondini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi[15], "Amir Temur ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi [16] qator farmon, qonun va qarorlar hamda ularning ijrosi muhim tarixiy voqea bo'lib, ushbu masalaning davlat miqyosida ko'tarilgani muhim tarixiy voqelik bo'ldi.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida buyuk Sohibqironning ulug'vor haykallari qad rostlashi buyuk ajdodimiz xotirasini e'zozlash, nomini abadiylashtirish yo'lida olib borilgan xayrli ishlar sirasidandir. Poytaxt Toshkent markazidagi so'lim hiyobon, shohko'cha, metro bekati, respublikaning turli hududlaridagi madaniyat va ma'rifat maskanlariga ham Amir Temur nomi berilgani Amir Temur nomini abadiylashtirdi.

Xorijiy mamlakatlarda Amir Temur va temuriylar saltanatini o'rganishga bag'ishlangan asarlar uzoq yillar davomida ko'plab chop etilgan va hozir ham bu jarayon davom ettirilmoqda.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari olimlari, xususan, fransuz tarixchilari tomonidan Sohibqiron Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni haqida Fransiyada o‘nlab tarixiy-badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan. Jumladan, Lyusen Kerenning “Amir Temur saltanati” [17.248] nomli asari 1980 yilda Parijdagi “Payot” nashriyoti tomonidan nashr qilingan. Shundan so‘ng yana bir necha bor qayta-qayta bosilgan bu roman Samarqand tarixi bilan boshlanib, Amir Temurning dunyoga kelishidan umrining oxirigacha bosib o‘tgan hayot yo‘lini qamrab oladi. Unda Sohibqiron barpo etgan saltanatning keyingi taqdiri hamda Boburning hayotiga alohida boblar ajratilgan. Buyuk bobokalonimizning Yevropa qirollari bilan o‘rnatilgan munosabatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlar ham ilova qilingan.

4. Xulosa:

Umuman olganda, ko‘plab chop etilgan asarlarda tadqiqotchilar Sohibqironning buyuk daho ekanligini, bu ulug‘ siymo qoldirgan boy meros, pandu nasihat va o‘gitlar bugungi kun bilan hamohang ekanligini, muammolarni yechishda qo‘l kelishini, shuning boisdan ham, bu merosni o‘rganish, targ‘ib-tashviq qilish lozim ekanligini ta’kidlaydilar.

Amir Temur nomi buyuk bunyodkor, milliy davlatchilik tamal toshini qo‘ygan, Vatan ozodligi yo‘lida jonini tikib, adolatparvar siyosat yuritgan Sohibqiron sifatida tarix sahifalariga muhrlangan. Amir Temur hayoti va sarkardalik mahorati bilan bog‘liq voqeliklar, erishilgan muvaffaqiyatlar, o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganish, tahlil etish, zaruriy saboqlar chiqarish va uning natijalarini yanada mustahkamlash hozirgi davrda va kelgusida ham dolzarbligicha qolaveradi.

Iqtiboslar/Cnoski/References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B.5.
2. Yangi O‘zbekiston–yangicha dunyoqarash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosida. Risola. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2021. – B.65.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “1996 yilni Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 1995 yil 26 dekabr // Xalq so‘zi. 1995, 27 dekabr, PF-1333-son. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 303-modda).
- 4.“Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining630-son qarori, 1994 yil 29 dekabr // Xalq so‘zi. 1994, 30 dekabr; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 1996 yil 14 mart // Xalq so‘zi. 1996, 15 mart; “Amir Temur” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1996 yil 26 aprel// O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Axborotnomasi.–Toshkent, 1996.–№ 5-6. 63-modda.)
5. Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Asarlar, 5-jild. – Toshkent:O‘zbekiston, 1997.–B.169.
6. Xalq so‘zi, 1996 yil 25 oktyabr.
- 7.Manz Beatrice Forbes. The rise of Tamerlane, Cambridge Univ. Press. Cambridge, 1989, p.93.
8. Jean-Paul Roux. Ibid., p.142.
9. UNESCO. Resolutions twenty – eighth session of the General Conference. Vol. I, Paris, 1996, p. 89.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Parijda Tyemuriylar davrida fan, madaniyat va ta’limning ravnaqi” haftaligini o‘tkazish to‘g‘risida” 1996 yil 11 yanvardagi 19-son qarori.
11. Bobojonova D. Sohibqiron Amir Temur jahon olimlari nigohida. /Amir Temur saboqlari./ Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.–Toshkent:Sharq, 1998.–B.38.
12. “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari.1996 yil 23-26 oktyabr (o‘zbek, rus va ingliz tillarida).–Toshkent:O‘zbekiston, 1996.–122 b.

13. “1996 yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to’g’risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent., 1995 yil 26 dekabr, PF-1333-son. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995., 12-son, 303-modda*).

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish to’g’risida”gi 1996 yil 14 martdagi 99-sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro Amir Temur fondini qo‘llab-quvvatlash to’g’risida” gi 1996 yil 14 martdagi 100-sonli qarori.

16. Amir Temur ordenini ta’ sis etish to’g’risida // O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 26 aprel, 225-I-son. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 63- modda; 1997 y., 4-5-son, 126-modda; 2003 y., 9-10-son, 149-modda*).

17. Keren L. Amir Temur saltanati /Fransuz tilidan tarj. va izohlar muallifi: B.Ermatov; Maxsus muharrir: X.Sulton; So‘zboshi Lui Bazan. – Toshkent:O‘zbekiston, 2018. – 248 b.

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000